

**MAHALLA, SHAXS, TARBIYA MASALALARIGA
FALSAFIY YONDASHUV****Pirniyazova Miyrxan Kuniyazovna***Nukus davlat pedagogika instituti, Elikqa’la pedagogika fakulteti,
Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o’qitish kafedrası o’qituvchisi*

Anontatsiya: Mazkur maqolada jamiyat rivojini belgilovchi kelajak avlodimiz hisoblangan yoshlarni shaxs sifatida tarbiyalash masalasi, mahalla va oila, maktab hamkorligi afzalliklari hususida falsafiy mushohada qilingan holatda fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada mahalla, oila, shaxs tushunchalariga ta’riflar berilgan. Shaxsning asosiy psixologik xususiyatlari haqida ham keng ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: mahalla, oila, tarbiya, shaxs, yoshlar, maktab, jamiyat, falsafiy yondashuv, psixologik holat, natija

Mahalla, shaxs va tarbiya — bu bir-biri bilan chambarchas bog’liq bo’lgan tushunchalar. Ular insonning ijtimoiy hayoti, madaniyati va axloqiy qadriyatlari bilan bevosita aloqador. Ushbu maqolada, mahalla va tarbiya o’rtasidagi munosabatlar, shaxsning tarbiyasida mahallaning roli va falsafiy yondashuvlar ko’rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son [Farmoni](#) bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla ziyosi” respublika o’quv-uslubiy markazi negizida O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o’rinlarda — Institut) tashkil etildi.[1]

Mahalla — bu insonlarning bir-biri bilan yaqin aloqada bo’lib, o’zaro yordam va qo’llab-quvvatlashni ta’minlaydigan ijtimoiy birlikdir. Mahallaning asosiy vazifalaridan biri — odamlarni birlashtirish, ularning madaniy va axloqiy qadriyatlarini saqlab qolishdir. Mahallada tarbiyalash jarayoni ko’pincha an’anaviy usullar bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy hayotga kirishiga, uning axloqiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.

Mahalla o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ijtimoiy makoni bo’lib, unda yoshlarining falsafiy dunyoqarashini milliy qadriyatlar ruhida shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o’rni chuqur va serqirra sanaladi. Ta’limda yoshlarning intellektual, axloqiy va hissiy rivojlanishiga hissa qo’shadigan keng ko’lamli tajriba va o’zaro ta’sirlarni real voqelik bilan uyg’unlashtirish ijobiy samara beradi. Jamiyatda yoshlar falsafiy dunyoqarashni ta’lim bilan kengaytirishda mahalla ham o’zining alohida rolga ega bo’lib, ularga bilim berish jarayonida tanqidiy fikrlashni o’rgatish, axloqiy mulohazalarini milliy fuqarolik tuyg’usi bilan bog’lash ertangi kelajakka xizmat qiladi. Mahallada yoshlar falsafiy

dunyoqarashini o‘tib borishida ta’limning muhim o‘rinlaridan biri bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bu borada davlatimiz rahbari fikr bildirar ekanlar “Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobiy tashabbus” kabi dasturlarimiz aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o‘ynamoqda. Buning natijasida yuzlab tuman, shahar va qishloqlarning me’moriy qiyofasi tubdan yangilanmoqda.

Mahallada yoshlarni ta’lim olishlarida axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirib borish, ularni to‘g‘ri bilim oshiga o‘rgatish, zamonaviy ilmlar haqida chuqur fikrlashga undash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Axloqiy masalalarda mahallada munozaralar va mulohaza yuritish orqali o‘quvchilar o‘zlarining ijtimoiy qarashlarini boyitadilar, o‘z harakatlarining boshqalarga ta’sirini hisobga oladilar, shaxsiy va ijtimoiy sharoitlarda axloqiy xulq-atvorning ahamiyatini tushunadilar. Ta’limning bu jihati nafaqat bilimli, balki kuchli axloqiy kompasga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularga zamonaviy hayotning murakkabliklarida halollik va rahm-shafqat bilan harakat qilish imkonini beradi. Bir-biriga bog‘langan bugungi dunyoda mahalla yoshlarini global muammolar va madaniy xilma-xillik haqida o‘rgatish ularning falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Global istiqbollarni o‘zida mujassam etgan ta’lim yosh shaxslarga kengroq jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunishga yordam beradi va global muammolarga nisbatan mas’uliyat hissini uyg‘otadi.

Turli madaniyatlar, tarixlar va jamiyat tuzilmalarini o‘rganish orqali talabalar ko‘proq empatik va ochiq fikrli bo‘lib, falsafiy izlanishlar va adolatli dunyoni targ‘ib qilish uchun juda muhim bo‘lgan fazilatlariga ega bo‘lishadi. Mahalla yoshlarining falsafiy dunyoqarashini yaxshilashda ta’limning roli bilan hamjamiyat ishtiroki va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari ajralmas hisoblanadi. Jamiyatga foydali loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar o‘z bilimlarini real sharoitlarda qo‘llaydilar, bu esa ularning ijtimoiy adolat, fuqarolik mas’uliyati va umumiy farovonlikka hissa qo‘shish qiymati haqidagi tushunchalarini boyitadi. “Shu maqsadda, mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o‘qitilgan har bir shaxs uchun o‘quv markazlariga, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga subsidiyalar beriladi”[2]. Bu tajribalar nafaqat falsafiy tamoyillarni amalda qo‘llashni kuchaytiribgina qolmay, balki yoshlar va ularning jamoalari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, tegishlilik va maqsad tuyg‘usini rivojlantiradi.

Mahalla yoshlarining falsafiy tafakkurini takomillashtirishda ta’limga e’tibor qaratish masalalarini hal etish o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish metodologiyasi, jamoatchilik ishtiroki va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi. Maqsad – yoshlarda nafaqat bilim beradigan, balki tanqidiy fikrlash, axloqiy mulohaza yuritish va reflektiv fikrlashni rag‘batlantiradigan o‘quv muhitini shakllantirish. Bu sa’y-harakatlar jamiyatga ijobiy hissa qo‘sha oladigan har tomonlama barkamol shaxsni etishtirish uchun juda muhimdir. Buguni kunda ta’limda namunaviy o‘quv dasturida falsafa va tanqidiy fikrlashga e’tibor berilmaganligi asosiy muammolardan

biridir. Maktablarda ko'pincha istiqbol uchun muhim deb hisoblangan fanlarga ustunlik beradi, falsafani tanlash yoki darsdan tashqari mashg'ulot sifatida chetlab o'tadi. Buni bartaraf etish uchun ta'lim muassasalari falsafiy tafakkurni yoshlikdan boshlab asosiy o'quv dasturiga kiritishi kerak. Ushbu integratsiya yosh bolalar uchun hikoyalar orqali falsafani o'rgatish, rasmiy falsafiy munozaralar va katta yoshdagi talabalar uchun axloqiy munozaralarga o'tishni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday mazmun yoshlarni savol-javobga, mulohaza yuritishga va turli masalalar bo'yicha o'z qarashlarini shakllantirishga undaydi, izlanish va mulohaza yuritish madaniyatini tarbiyalaydi. Ko'pincha eslab qolish va standartlashtirilgan testlarga tayanadigan an'anaviy o'qitish usullari falsafiy fikrlashni rag'batlantirish uchun samara bermaydi. Yoshlar o'rtasida tarbiyaviy yo'nalishni shakllantirish va falsafiy tafakkurni rivojlantirishda mahallaning o'rnini katta. Mahalla bilan maktablar, jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish o'quvchilarga ekologik bilim, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyati kabi falsafiy tadqiqotlar uchun real dunyo kontekstlarini taqdim etishi mumkin.

Shaxs — bu ijtimoiy muhitda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, o'z fikr va his-tuyg'ulariga ega bo'lgan insondir. Tarbiya jarayonida shaxsning rivojlanishi, uning ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi va o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega. Falsafiy yondashuvlar shaxsning ichki dunyosini, uning ruhiy holatini, axloqiy qarashlarini o'rganishga qaratilgan. Shaxsning tarbiyasi faqat tashqi ta'sirlar bilan cheklanmay, balki uning ichki motivatsiyasi va maqsadlari bilan ham bog'liq.

Tarbiya — bu shaxsning axloqiy, madaniy va intellektual jihatdan rivojlanish jarayonidir. Mahalla bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Mahallaning tarbiyada o'rnini nafaqat an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish, balki zamonaviy muammolarni hal etishda ham ko'rinadi. Mahallada tashkil etilgan turli tadbirlar, o'yinlar va faoliyatlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Jamiyatda yoshlarning ishtirokini turli nuqtai nazardan tan olish va baholash ham ta'lim muhitiga katta hissa qo'shadi. Mahalla yoshlari dunyoqarashini kengaytirishda ta'lim-tarbiyaning o'rnini serqirra va terandir. Ta'lim, keng ma'noda, nafaqat rasmiy maktab ta'limini, balki jamiyatdagi norasmiy ta'lim tajribalarini ham o'z ichiga oladi. U mahalliy atrof-muhit va undan tashqaridagi keng, murakkab dunyo o'rtasida ko'priki bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarga turli madaniyatlar, jamiyatlar va global muammolar haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Yoshlar falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda tanqidiy fikrlashni tarbiyalash, axloqiy mulohazani targ'ib qilish, jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish ijobiy samara beradi. Yoshlarda ta'lim orqali rivojlangan falsafiy dunyoqarash nafaqat bilim olish, balki mehr-oqibatli va dunyoni ijobiy o'zgartirishga intilgan shaxslarni shakllantirishga olib keladi.

Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflilik ishini oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir

bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o‘rni, mavqei hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish:

➤ Tarbiyaviy ishlar o‘tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish.

➤ Mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratib berish.

➤ Mahallada tarbiyaning ta’sirini oshirish. Kabi ko‘plab ishlarni olib borish, o‘quvchilarni har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shaxs — alohida individa, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xiddir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihati uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe‘l-atvor bilan, biofiziologik jihati esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an‘ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma’naviy me‘yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne‘matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo‘lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to‘laqonli shaxs bo‘lib yetilmasligi mumkin.

Ta’lim va tarbiya sohasiga etiborni kuchaytirish bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va hujjatlarni, ma’muriy ko‘rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyatini o‘ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllariga ega bo‘lishlari zarur. O‘tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashganlarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashtirgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko‘rgazmali, amaliy jihatdan qisqa va lo‘nda estetik jihatdan keng ko‘lamli bo‘lishi kerak. Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha

yoshlarni qamrab olgan holda, ularning yoshlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib ularni foydali ishlarga yo‘naltiriladi.

Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoyq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Tarbiya jarayonida oila mahalla muhim ahamiyatga ega bo‘lib, oila va mahallaning bir-biriga o‘zaro ta’sirining katta roli mavjud. Bu jarayonda oila va mahalla hamkorligi, o‘zaro ko‘maklashish va qo‘shnilarini muhofaza qilish katta ahamiyatga ega. Oila tarbiyasi jarayonida oila a’zolari o‘rtasida xususiy munosabatlar, sevgi, hurmat va tavsifning muhim ahamiyati bor. Mahalla esa oilaga yordam berish, ularning muammolariga yechim topishda yordam berish va oilaning o‘zaro munosabatlarini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla va oila hamkorligi, shuningdek, barcha o‘quvchilarning o‘zaro aloqalari va hamkorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Mahalladagi barcha insonlar o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, yoshlarning qiziqishlariga javob berish va oila tarbiyasi jarayonida o‘z hissalarini o‘zlashtirishlari kerak.

Oila va mahalla hamkorligi, shuningdek, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda ham katta ahamiyatga ega. Mahalla o‘qituvchilari va oila a’zolari yoshlarga o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, ularning o‘zlarini o‘rganishda va o‘zlashtirishda yordam berishlari kerak. Bundan tashqari, oila va mahalla hamkorligi, muhokama va yordam berishda katta ahamiyatga ega. Mahalladagi insonlar o‘zaro muammolarni yechishda va bir-biriga yordam berishda oilaga yordam berishlari kerak. Bunday holatlar oila tarbiyasi jarayonida yoshlarga ham ta’sir ko‘rsatadi va ularni yaxshi insonlar bo‘lib o‘stirishda yordam beradi. Bola tarbiyasida maktab o‘rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta’lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga afnal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo‘ladi:

- ta’lim tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi
- tarbiyalanuvchiga xurmat va talabning uyg‘unligi.
- hamkorlik jarayoni sub’ektlarning teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati. ➤ ota-ona farzandining maktabgacha bo‘lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash.

Falsafada mahalla, shaxs va tarbiya masalalari ko‘plab yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Masalan, ekzistensializm shaxsning erkinligi va javobgarligiga e’tibor qaratadi. Bu yondashuv shaxsning o‘zini anglash jarayonida mahallaning ahamiyatini tan oladi.

Shuningdek, sotsiologik yondashuvlar mahallaning ijtimoiy strukturasi va uning tarbiyaga ta'sirini o'rganadi.

Mahalla, shaxs va tarbiya masalalari falsafiy yondashuvlar orqali chuqurroq tushunilishi mumkin. Mahalla shaxsning tarbiyasida muhim rol o'ynaydi, chunki u ijtimoiy muhitni yaratadi va shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Tarbiya jarayoni esa, shaxsning axloqiy va madaniy jihatdan shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, mahalla va tarbiya masalalariga falsafiy yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.06.2020 yildagi 367-son
2. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.T.:2006.
3. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.:“Tibkitob”, 2010.
4. Ortiqov N.O., Jo‘rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. T.:“O‘qituvchi”, 1989.
5. Raximjonov N. “Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli” T., 2005 (B.M.I.)
6. Abduraxmonova N.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosining pedagogik zaruriyati // Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 8 UIF-2022: 8.2\ISSN:2181-3337.2114-2121
betlar.<http://scientists.uz/view.php?id=3348><http://scientists.uz/uploads/202208/B-432.pdf> 9.
7. Abdurakhmanova N.N. Structural and substantive features of improving the methodological preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // The field of scientific research International scientific-online conference Part 4 November 30th Collections of scientific works Warsaw 2022. / 115-121
betlar. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/646/607/595>
8. Abdurakhmanova N.N. The practical situation of improving the methodical preparation of future elementary school teachers for the intellectual development of students // France international scientific-online conference:“Scientific approach to the modern education system” Part 10, 5th December. / 174-177
betlar.<https://interonconf.org/index.php/fra/article/view/647>